



UZBEKISTAN AIR GATEWAYS

Halim Salimovich Murodov

Department of Social Sciences

Doctor of Philosophy in History

Bukhara State Pedagogical Institute

E-mail: murodovhalim645@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Samarkand Airport, Bukhara Airport, Urgench Airport, international aviation, transport logistics, tourism infrastructure, modernization, competitiveness, strategic development.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the formation, stages of development, and the role of international airports located in the historically and culturally rich regions of Uzbekistan — namely, Samarkand, Bukhara, and Urgench — within the global aviation system. The study examines the modernization of these airports, innovations introduced through foreign experience, their contribution to tourism infrastructure, and their position in regional competition. A comparative analysis with Kazakhstan's Almaty Airport highlights both the advantages and shortcomings of Uzbekistan's airports. The article scientifically substantiates the strategic significance of the transport and logistics system in the development of the tourism sector.

O'ZBEKISTON HAVO DARVOZALARI

Halim Salimovich Murodov

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası

tarix fani bo'yicha falsafa doktori

Buxoro davlat pedagogika instituti

E-mail: murodovhalim645@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Samarqand aeroporti, Buxoro aeroporti, Urganch aeroporti, xalqaro aviatsiya, transport-logistika, turizm infratuzilmasi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosga boy hududlarida joylashgan xalqaro aeroportlar — Samarqand, Buxoro va Urganch

modernizatsiya, raqobatbardoshlik, strategik rivojlanish.

aeroportlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va xalqaro aviatsiya tizimidagi o'zni tahlil qilinadi. Aeroportlarning modernizatsiyasi, xorijiy tajriba asosida joriy etilgan yangiliklar, sayyohlik infratuzilmasiga qo'shgan hissasi hamda mintaqaviy raqobatdagi o'zni ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Qozog'istonning Olma-Ota aeroporti bilan qiyosiy tahlillar orqali O'zbekiston aeroportlarining ustunliklari va zaif jihatlari yoritiladi. Maqola transport-logistika tizimining turizm sohasidagi strategik ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi.

ВОЗДУШНЫЕ ВОРОТА УЗБЕКИСТАНА

Халим Салимович Муродов

Кафедра социальных наук

Доктор философии по истории

Бухарский государственный педагогический институт

E-mail: murodovhalim645@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, аэропорт Самарканд, аэропорт Бухара, аэропорт Ургенч, международная авиация, транспортная логистика, туристическая инфраструктура, модернизация, конкурентоспособность, стратегическое развитие.

Аннотация: В данной статье анализируются формирование, этапы развития и роль международных аэропортов, расположенных в исторически и культурно богатых регионах Узбекистана — а именно Самарканда, Бухары и Ургенча — в системе глобальной авиации. В исследовании рассматриваются процессы модернизации этих аэропортов, внедрение инноваций на основе зарубежного опыта, их вклад в туристическую инфраструктуру, а также их место в региональной конкуренции. Сравнительный анализ с аэропортом Алматы (Казахстан) позволяет выявить как преимущества, так и недостатки узбекских аэропортов. В статье научно обоснована стратегическая значимость транспортно-логистической системы в развитии туристического сектора.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy meros obyektlariga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlari xalqaro

miqyosda e'tiborga molik sayyohlik markazlariga aylanishi bilan turizm infratuzilmasining, jumladan, xalqaro aeroportlar faoliyatining takomillashuvi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Xalqaro aeroportlar nafaqat mintaqaviy yoki xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik transport va yuk tashish markazi sifatida, balki O'zbekistonning tashqi imiji, iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini aks ettiruvchi muhim ahamiyatga ega inshootlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolada 1990 yillardan 2016 yilgacha bo'lgan davrda Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, xorijiy tajribalarni joriy etish jarayonlari, ularning xalqaro aviatsiya tizimidagi o'rni hamda mintaqaviy raqobat sharoitidagi ustunlik va kamchiliklari kompleks tahlil qilinadi.

O'zbekiston tarixiy-madaniy merosga boy mamlakat bo'lib, turizm sohasining jadal rivojlanishi transport infratuzilmasining holatiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, xalqaro ahamiyatga ega aeroportlar — xorijiy sayyohlar uchun mamlakatga ilk kirish eshigi ya'ni havo darvozasi hisoblanadi. Samarqand aeroporti dastlab 1930-yillarda kichik mahalliy aerodrom sifatida faoliyat boshlagan. 1967-yilga kelib, qayta qurilishi natijasida infratuzilmada jiddiy o'zgarishlar yuz bergan. Bu bosqichda aeroport asosan ichki yo'nalishlar uchun xizmat ko'rsatgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyodagi muhim logistika nuqtasi sifatida shakllana boshlagan. 1993-yil — Samarqand aeroporti Jahon Aeroportlari Assosiasiyasiga a'zo bo'ldi. 1994-yil — 16 ta davlat, jumladan Buyuk Britaniya, Turkiya, va boshqalar bilan xalqaro aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Xalqaro standartlarga moslashish uchun xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar, zamonaviy texnika, va tashqi aloqalar bo'limi tashkil etildi. Samarqand aeroporti Shchiphol (Gollandiya) va Shennon (Irlandiya) kabi yirik aeroportlar tajribasini o'rganishga kirishdi. Bu borada Markaziy Osiyodagi Qozog'iston poytaxti Olma ota aeroporti bilan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, Samarqand aeroportidan qariyb 4 yildan so'ng ya'ni 1998 yildan keyingina Jahon aeroportlari assosiasiyasiga kirgan edi[1.https:]. Bu Samarqand aeroportining samarali va ilg'or faoliyati natijasi hisoblanadi. Samarqand aeroporti mustaqillik yillarida Yevropadagi aeroportlar bilan tanishish hamda zamonaviy boshqarish va xizmat ko'rsatish uchun bir qator modernizatsiya jarayonlarini jumladan, 1996-yilda Samarqand, Buxoro va Urganch aeroportlarini modernizatsiya qilish uchun "Alenia Marconi Systems" (Italiya) bilan shartnoma tuzildi[2. https:]. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Samarqand aeroporti 2004-yil — MDH doirasida "Eng yaxshi aeroport" unvoni (100 000 yo'lovchi tashish nominatsiyasida) qo'lga kiritildi[3. https:]. Mazkur aeroport 2009-yil 13 mlrd so'mlik investitsiya kiritilishi natijasida kapital rekonstruksiya qilinib, aerovokzal, boshqaruv minorasi, zamonaviy uchish-qo'nish yo'lagi barpo etilishi natijasida kelgusi 2010-yilda 207 mingdan ortiq yo'lovchilarga xizmat ko'rsatdi. Afsuski bu borada ya'ni 2000 yillardan boshlab, Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biri bo'lgan Olma ota aeroportidan ancha orqada qolib, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish borasida ushbu shahar 2010

yilda 3 million kishiga xizmat ko'rsatish bilan juda tez rivojlanishi bilan ajralib turdi. Qayd etishimiz kerakki Samarqand aeroporti 1990-yillarning oxiri – 2000-yillarning boshlarida Tojikiston yoki Qirg'izistondagi aeroportlardan yuqori darajasi bilan ajralib turib, hatto bu davlatlardagi aeroportlar rekonstruksiya va xalqaro tanlovlarda ishtirok etish imkoniyatiga ham ega emas edilar[4. <https://>]. Xalqaro integratsiya va raqobatbardoshlik borasida Mamlakatdagi 7 ta aeroport ichida dastlab Toshkent va Samarqanddagi xalqaro aeroportlarga Xalqaro "ISO 9001:2008" sertifikatini topshirildi. Ushbu sertifikat «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasiga xalqaro "Sky Team" uyushmasiga a'zo bo'lish imkonini yaratdi[5. 2011 yil 15 yanvar]. Jumladan, VIP xonalar, SIR zonalar, kutish zallari, valyuta ayirboshlash shoxobchalari kabi xizmatlar xalqaro darajada tashkil etildi. Ushbu omillar Samarqand aeroportining xalqaro aviatsiya tizimidagi strategik o'rnini kuchaytirdi. Samarqand — Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgani sababli logistik jihatdan qulay bo'lib, Yevropa Ittifoqidan kelayotgan samolyotlar Toshkentga qaraganda Samarqandga tezroq yetib keladi — bu esa yoqilg'i tejallishi va parvoz narxini kamaytiradi. Bu esa Mazkur aeroportning istiqbolda strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Bu borada Urganch va Buxoro xalqaro aeroportlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda sayyohlik xizmatlaridagi holatining tarixiy tahlili o'ziga xos ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Urganch xalqaro aeroporti 1932-yilda barpo etilgan bo'lib, uzoq yillar mobaynida ichki aviaqatnovlar uchun xizmat ko'rsatgan. Ushbu davrda infratuzilmaning turg'unligi, texnik ta'minotning zaifligi, xizmat sifati pastligi aeroport faoliyatining rivojlanishini cheklab kelgan. Buxoro aeroporti tarixi 1950-yillardan boshlanadi. Mazkur aeroport sovet davrida mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan, biroq zamonaviy xalqaro talablarga javob bera oladigan infratuzilmaga ega emas edi. Aeroportning jadal rivojlanishi 1997-yildan, Yaponiya krediti asosida amalga oshirilgan rekonstruksiya ishlari bilan boshlangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlar boshlangan. Xususan, 1999-yilda Urganch va Buxoro aeroportlariga xalqaro maqom berilishi ushbu hududlarni dunyo sayyohlari uchun ochiqligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi[6. <https://>]. Urganch aeroportida 1995-yilda xalqaro xizmatlar yo'lga qo'yildi, 1997-yilda uchish-qo'nish yo'lagi rekonstruksiya qilindi, 1999-yilda esa to'liq xalqaro maqomga ega bo'lishi va 2002 yilda Yaponiya krediti asosida amalga oshirilgan rekonstruksiya xalqaro andazolar bo'yicha mukammallashtirishning boshlanishi bo'ldi[7.B.6.]. Ayniqsa, Xiva shahri YUNESKO meros obyektlari ro'yxatiga kiritilgach, bu aeroportning ahamiyati yanada ortdi. Buxoro aeroporti ham 1999-yilda xalqaro maqom oldi, biroq xizmat sifati, infratuzilma, byurokratik tartiblar kabi sohalarida muammolar uzoq vaqt davom etdi. Viza muammolar[8.B.1-5], xizmatlar sifati[9.B.46.], til to'siqlari va turistik servisning yetishmasligi sayyohlar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2010-yillardan boshlab aeroportlar faoliyatida sifat jihatdan yangilanish kuzatildi. Urganch aeroportida

2006-yilda yangi terminal (soatiga 300 yo'lovchiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega), 2014-yilda esa zamonaviy ikki terminal (soatiga 600 yo'lovchi) ishga tushirildi. Yani, 2013-yil 20-martdagi "2013-2015-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida "Urganch" xalqaro aeroporti xalqaro standartlar asosida qayta qurildi. Aeroport VIP va CIP zallari, axborot markazi, Duty-free do'koni, tibbiyot punkti va boshqa xizmat turlariga ega bo'lib, sayyohlar uchun qulay muhit yaratildi. Buxoro aeroportida esa 2011-yil 3-noyabrda yangi terminal qurildi. Ushbu terminal soatiga 400 yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, 2010-yilda 100 mingga yaqin yo'lovchi xizmat ko'rsatilgan. Shu o'rinda Markaziy Osiyodagi yetakchi shaharlardan biri, lekin madaniy-tarixiy yodgorliklari va boradagi turizm salohiyati bo'yicha ham Samarqand, Buxoro va Xivaga tenglasha olmasada biroq Olma ota shahridagi aeroportida doimo yangilanishlar amalga oshirilib, 2010-yilda ichki yo'nalishlar bo'yicha jo'nab ketuvchi va yetib kelgan yo'lovchilar oqimi ajratilib, o'tkazish qobiliyati soatiga 1300 yo'lovchiga yetkazildi. 2010 yil oxirida eski terminalning ta'mirlanishi va kengaytirilishidan so'ng uning o'tkazish qobiliyati soatiga 1600 yo'lovchiga yetkazilganligini tahlil qiladigan bo'lsak, bu hatto Toshkent aeroporti darajasidan ham yuqori ekanligini ko'ramiz[10.B.11]. Demak, O'zbekistonda "O'zbekiston havo yo'llari"ning monopolligidan farqli ravishda qo'shni Qozog'istonda bir necha aviakompaniyalar faoliyati yo'lga qo'yilganligi, ular o'rtasida raqobat muhitining mavjudligi, ularga berilayotgan yengilliklar va qulayliklar tufayli tashqi va ichki reyslar ko'payib, sayohatchilar va yo'lovchilar sonining oshishiga imkon yaratgan edi.

2010 yilda Buxoro xalqaro aeroporti ISO 9001:2008 xalqaro sifat sertifikatini oldi. Shu bilan birga, aeroport MDH doirasida bir necha marotaba "Eng yaxshi aeroport" sifatida e'tirof etilgan. Shunga qaramay, Buxoro aeroportida viza olish va rasmiylashtirishdagi murakkabliklar[11.B.1-5, deklaratsiyalarning faqat o'zbek va rus tilida bo'lishi, servis xizmatlarining yetarli emasligi[12.B.46.] kabi muammolar uzoq yillar davomida sayyohlar uchun noqulayliklar tug'dirgan. Urganch aeroporti sayyohlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni tezroq joriy etdi. Xorijiy sayyohlar uchun maxsus axborot markazi, dam olish zonalar, internet, transport haqida ma'lumot beruvchi xizmatlar joriy etildi. Parij, Milan kabi shaharlardan bevosita qatnovlar yo'lga qo'yilishi ushbu aeroportning xalqaro nufuzi ortishiga xizmat qildi.

2016 yilgacha bo'lgan davrda Buxoro va Urganch aeroportlari xizmat ko'rsatish infratuzilmasi jihatidan sezilarli darajada yangilangan bo'lsa-da, xizmat sifati, til muammolari, bojxona va migratsiya tartiblaridagi murakkabliklar hali ham soha rivojiga salbiy ta'sirini o'tkazayotgan edi. Sayyohlik markazi sifatida Samarqand, Buxoro va Urganch bilan birgalikda yagona turistik yo'nalishlar tizimini tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan olib qaraganda tarixiy va turizm markazi bo'lgan shaharlarga tashrif buyuruvchi sayyohlar va boshqa yo'lovchilarga

xizmatini ko'rsatish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda ayniqsa, ishsiz aholini ish bilan ta'minlash borasida muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://kase.kz/files/emitters/ARAL/aralp_2020_rus.pdf .Годовой отчет АО «Международный аэропорт Алматы»2020. С.9-10.
2. https://uzaeronavigation.com/external_debt/informatsiya-po-kontraktu-modernizatsiya-aeroportov-samarkand-buhara-urgench-1/
3. <https://sibalux.ru/mezhdunarodnyj-ajeroport-samarkand/>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oлмаота_xalqaro_aeroporti#Statistika
5. Jo'rayev I. Chiroy ochayotgan aeroport. Samarqand gazetasi 2011 yil 15 yanvar.
6. Xorazm viloyat hokimligi arxivi.M-1150, 7-ro'yxat, 57-yig'ma jild, 6-varaq.
7. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 1-5-varaqlar.
8. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 46-varaq.
9. <http://dd.gov.uz/uz/news/view/298>
10. https://kase.kz/files/emitters/ARAL/aralp_2020_rus.pdf .Годовой отчет АО «Международный аэропорт Алматы»2020. С.11.
11. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 1-5-varaqlar.
12. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 46-varaq.